https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Nurmamatova Gulshanoy Xoldarali qizi

ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi

isroilovagulshanoy16@mail.com 91 746 96 03

Ilmiy rahbar:Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD):**Rixsiyeva Kamola**

O‘ZBEK VA OZARBAYJON TILLARIDA SIFAT DARAJALARINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya: Mazkur maqola o‘zbek va ozarbayjon tillarida sifat darajalarining ifodalanishiga qiyosiy tahlil yondashuvini taqdim etadi. Unda sifat darajalarining turlari har ikki tilda qanday shakllanishi va grammatik vositalar yordamida ifodalanishi ko‘rib chiqilgan.Maqola ikki til o‘rtasidagi morfologik, sintaktik va leksik farqlarni ta’kidlaydi, shu bilan birga, bu farqlar tilshunoslikda qiyosiy tahlil uchun muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Maqola o‘quvchilarga o‘zbek va ozarbayjon tillarining lingvistik tizimlari o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: adi,azaltma,çoxaltma,dərəcə,sintaktik,morfologik.

Abstract: This article presents a comparative analysis approach to the expression of degrees of adjectives in Uzbek and Azerbaijani languages. It examines how the different degrees of adjectives are formed and expressed using grammatical tools in both languages. The article highlights the morphological, syntactic, and lexical differences between the two languages, emphasizing their significance for comparative linguistic analysis. It helps readers better understand the similarities and differences between the linguistic systems of Uzbek and Azerbaijani.

Key words: adi,azaltma,coxaltma,dərəcə,syntactic,morphological.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Morfologik sath birligi bo'lgan sifatning ba'zi so'z turkumlaridan farqi uning darajalanishidir.Ya'ni daraja sifatga xos kategoriyalardan biri hisoblanadi.Sifat darajalari bu belgining me'yordaligi,me'yordan ortiq yoki kamligini ifodalash uchun ishlatiladigan grammatik shakllar hisoblanadi.Turkiy tillarda sifat darajalari an'anaviy tarzda uchga bo'linadi:

1.Oddiy daraja

2.Qiyosiy daraja

3.Orttirma daraja

Sifatlar daraja kategoriyasidan tashqari ozaytirma va kuchaytirma shakllariga ham ega(Abdurasulov,2009).O'zbek adabiy tilida ozaytirma daraja termini ham qo'llaniladi.Ozarbayjon tilida ham bunday daraja kategoriyasi mavjud.

O‘zbek adabiy tilida daraja sifatning asosiy kategoriyasi bo‘lib,u quyidagi turlarga bo‘linadi:

1.Oddiy daraja - sifatlarning bosh shakli hisoblanadi va boshqa darajalarning yasalishiga asos bo‘ladi.Masalan,qizil,kichik,chiroyli,shirin kabi. Ozarbayjon tilida bu *adi dərəcə* deb ataladi va xuddi shunday tarzda keladi.Masalan,*gözəl,ağıllı,uzaq* tarzida.

2.Ozaytirma-qiyosiy daraja-belgining oddiy darajadan kamligi,kuchsizligini bildiradi.Qiyosiy daraja belgini boshqa bir belgiga qiyoslash shakli bo'lib,unda haqiqatan ham belgining me'yordan pastligini ifodalovchi ma'no mavjudligi sababli ushbu shakl ozaytirma-qiyosiy daraja shakli deb atalmoqda.Mazkur shakl asosan -*roq* affiksi yordamida hosil qilinadi:qizilroq,kichikroq, chiroyliroq kabi.Ba'zan sifatdan oldin kelgan otga jo'nalish kelishigi affiksi -*ga* va *ko'ra, qaraganda,nisbatan* ko'makchilarining qo‘shilib kelishi qiyoslashni yanada kuchaytirishi mumkin. Masalan,*ukamga qaraganda kichikroq,mendan ko'ra bilimdonroq* kabi(Muhiddinova va boshqalar,2006).Ozarbayjon tilida alohida

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

olinmagan bo'lsa-da,sifatning qiyosiy darajasi mavjud va u sifatga „-*daha*“ qo'shimchasini qo‘shish orqali hosil bo'ladi.Masalan,*daha yaxşı,daha böyük,daha sürətli.*Bundan tashqari *daha az* – kamroq yoki kichikroq darajadagi farqni ko'rsatadi.Masalan,*daha ucuz*-narxi kamroq. Ozaytirma darajaga to‘xtaladigan bo‘lsak,ushbu tilda azaltma dərəcə deb ataladi va 2 xil usulda yasaladi.

1.Morfoloji üsul ya’ni sifat asosiga -ımtil,-sov,-ımtraq,-şın,-yanız qo‘shimchalarini qo‘shish orqali.Masalan, ağumtıl(oqroq),uzunsov(uzunroq),sarımtraq(sariqroq),sarıyanız(sarg‘ish).

2.Sintaktik üsulda esa sifatdan oldin açıq,ala,az,sifatdan keyin -təhər so‘zlari qo‘llanib,ozaytirma daraja hosil bo‘ladi.Masalan,açıq yaşıl(och yashil),ala qaranlıq(nimqora),az açı(biroz achchiq),şırıntəhər(shirinroq).

Sifatning orttima darajasini yasashda o'zbek tilida 2 usul leksik va fonetik usullar mavjud. Ular quyidagicha ifodalanadi:

— leksik usul —so‘zlar vositasida. Bunda sifat oldidan *eng,juda, g'oyat, nihoyatda, g'oyatda,behad,tim,jiqqa,g‘irt* kabi so'zlarni keltirish mumkin. Masalan, *eng baland, nihoyatda jozibali, g‘oyat nafis, jiqqa ho‘l* kabi.

— Fonetik usul—sifatning birinchi bo‘g‘iniga p, m, k kabi tovushlarni qo‘shib takrorlash yo‘li bilan. Masalan, *yap-yangi,dum-dumaloq, qip-qizil, qop-qora, pak-pakana, chippa-chin, to‘ppa-to‘g‘ri* kabi. Bunday sifatlar chiziqcha bilan yoziladi, faqat oq sifatining orttirma shakli *oppoq* istisno tariqasida qo'shib yoziladi.

Ozarbayjon tilida esa orttirma daraja xuddi ozaytirma daraja shakli kabi 2 usuli mavjud.Bular: 1.Morfoloji (so‘z+qo‘shimcha) üsulda sifatdan keyin *-ça* qo'shimchasini qo'shish yoki sifatlarning birinchi bo'g'inining fonetik o'zgarishga uchragan shaklini qo'llash orqali yasaladi.Masalan,*yaxşıça(juda yaxshi),səpsərın,göm-göy* shaklida.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

2.Sintaktik (so‘z+so‘z) üsulda esa sifatlar oldidan *ən,lap,çox,olduqça,zıl,tund* kabi so'zlarini qo'llash orqali yasaladi.Masalan, *ən yaxşı,lap qəşəng,çox maraqlı,olduqça sərfəli,zıl qara,tundgöy* kabi.

Xulosa: Ushbu maqola ustida ishlash davomida bir nechta adabiyotlarni ko‘rib chiqdim.Ozarbayjon tili grammatikasi,leksikasi,fonetikasi bo‘yicha yozilgan ilmiy tadqiqotlar,rus va o‘zbek tillarida yozilgan qo‘llanmalar bilan tanishdim.Bu jarayonda men qardosh tilimiz haqida o‘zim uchun kerakli bo‘lgan k‘plab ma’lumotlarni oldim va bir qancha yangiliklarni kashf etdim.Hayratlanarli tomoni shundaki,kitoblarda bir-birini takrorlamaydigan,hatto bir-birini inkor qiluvchi jihatlarga ham ko‘zim tushdi.Xulosa qilib aytganda,har ikki tild ham umumturkiy tillarga xos xususiyatlar mavjud.Ayrim leksik-fonetik farqlarni hisobga olmaganda,sifat darajalarining tuzilishi va yasalishi ham deyarli bir xil.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abdurasulov Y (2009).Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi.”Fan”nashriyoti.

2.Muhiddinova X,Xudayberganova D,Umirov I,Jiyanova N,Yusupova T.(2006).Hozirgi o‘zbek adabiy tili.”O‘qituvchi”nashriyoti.

3. Ширалиева М.Ш,Севортяна Э.В. (1971)”Грамматика азербайджанского языка”.Издательство”ЭЛМ”.